




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifatini, mazmuni va haqiqiylik uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

MUROD MANSURNING "JUDOLIK DIYORI" ROMANIDA DINIY MOTIVLAR

RELIGIOUS MOTIFS IN MURAD MANSUR'S NOVEL "THE LAND OF JUDAEA"

Sanobar TURSUNOVA,

TOSHDOTAU tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/XNHF8483

Annotation. *This article analyzes the instructive wisdom, verses and hadiths of the Holy Quran, and the wisdom of Imam Ghazali in Murad Mansur's work «The Land of Judaism». The author embodies the idea of the work in the form of images with discussion, evidence, and advice in appropriate places. The study extensively covers the artistic expression of moral qualities such as honesty and compassion. In the process of analysis, we see the educational significance of wisdom based on examples taken from the work.*

Key words: Imam Ghazali, Holy Quran, wisdom, hadith, morality, obligation, honesty, Sufism, spirituality.

Bilamizki, badiiy asarlarda yozuvchi asar g'oyasini to'laqonli ochib berish maqsadida Qur'oni Karim oyatlari, hadis va hikmatlardan foydalanishi an'anaga aylangan. Yozuvchi Murod Mansur asarlarida, tarixiy dalillar, ibratli hikmatlar, rivoyatlar orqali o'zining fikr-mulohazalarini ilgari suradi. Bu orqali ijodkor asarning umumiy g'oyasini kitobxonga yetkazishga harakat qilgan. Murod Mansurning "Judolik diyori" romanida epigraf sifatida asar boshida "Allohning bo'yog'ini (lozim tuting), Allohning bo'yogidan chiroyliroq bo'yoq berguvchi kim bor?! Va biz unga ibodat qiluvchilarmiz (Qur'oni Karim, 2/138)" keltirilgan.

Ushbu kitobda epigraf qilib keltirilgan oyatning botiniy ma'nosi asar mazmuni bilan evrilib, voqealar silsilasiga chambarchas bog'lanib, uning ruhiyatiga singib ketadi. "Allohning "bo'yog'i" ga (diniga kiringiz!) Allohnikidan yaxshiroq "bo'yoq" (din) bormi?! Biz Ungagina sig'inuvchilarmiz. (Qur'oni Karim, 2/138)"

Asarda haq yo'lida sobitqadam, din, iymon uchun kurashuvchan hidoyatli insonlar va ularga zid bo'lgan zalolat botqog'iga botgan zolim kimsalar borki, ularning hayoti, kechmishlari va qilmishlariga yozuvchi aynan mana shu epigraf qilib keltirilgan oyat orqali ishora qiladi, desak xato bo'lmaydi.

Asarda yozuvchi hidoyatli insonlar deganda masalan, Oltinxon to'ra, Alixonto'ra Sog'unliy romanda keltirilgan bu obrazlarga murojaat qiladi. Bu insonlar xalqni eng yaxshi ma'rifatga va ezgulikka olib chiqadigan tarixiy shaxslar hisoblanadi. Ularning keltirgan hikmatlari va rivoyatlarini keltirib o'tamiz. Asarda Alixonto'ra Sog'unliyni quyidagi hikmatli so'zi har bir o'quvchini larzaga keltiradi. "Ey bor Xudoyo, agar menga jannatingdan nasib etgan bo'lsang, boturlarimsiz kirgizmagil" degan duolari bor. Alixonto'ra Sog'unliy hazratlarining bu iboralari Muhammad (s.a.v) ning "Ummatim, ummatim, ummatim" deb aytgan so'zlaridan zavq olib Vatanga, xalqiga bo'lgan ilm-u ma'rifatga bo'lgan mehr-muhabbatini xalqimizning qadriyatini merosini, xalq og'zaki ijodini ham asrab-avaylashini va bu meroslarni kelajak avlodga yetkazish uchun qilgan sa'y harakatlari bugun xalqimiz ardog'ida ekanligini guvohi bo'lyapmiz. Shu o'rinda Alixonto'ra Sog'unliyni hadislariga amal qilganliklari ko'rinib turibdi.

Yana bir o'rinda Imom G'azzoliyning quyidagi hikmatli so'zlarini o'rinli deb bilamiz: "Ey inson... o'z asling nimarsadur va ne yerdin kelibsan va ne yerga borgungdur? Bu olam manzilgohiga nima ishga kelibsan va seni nima uchun ofarida qilibdur? Saodating ne ishdadur?.. " Imom G'azzoliydan olingan parchalar keltirilishi hamda asarning ikkinchi kitobni yozmoqdan

avval Alloh taolodan izn so'rab qilgan iltijolari: "Avvalo: Bismillahir rohmahir rohiym" deb boshlab, "Ich-ichimdan sezib turibman, nimadir monelik qilyapti. Nima qilsam, tizginni qo'lga olaman? Axiyri topdim! Yolg'iz o'zidan so'ramoq lozim ekan. Murod doram-umidim bor, deb iltijo etsang albatta, baroyad, Yo rab-iloyo, yetgin, javobi berilgusi ekan!... Iloho, nihoyasiga adashmay oson yetmagimga O'zing musharraflar aylagaysan. Omin ya Robbil olamiyn" [Judolik diyori 1, 5-bet] deb so'ng asarning davomini yozishga kirishganligi, yana ikkinchi kitobni bitmoqlikka Ramazoni Sharif kunlarida ixtiyor etganligi bunga yaqqol misol bo'ladi.

Romanda yana bir qator she'riy parchalar keltirilganki, unda Qur'oni Karimni tarjima qilgan buyuk zot-Oltinixon to'raning muhojirlikdagi (vatanidan yiroqdagi) yurtdoshlariga yo'llagan chorlovi sifatida berilgan.

"Ey muhojir, yotma g'ofil, sa'y qil, bedor bo'l,
Uz ko'ngil dunyodin emdi, tolibi diydor bo'l,"

Mazkur baytda muallif vatanini tark etib, musofirlikda yurgan insonlarga (muhojirlarga) murojaat qilmoqda. Ularni g'aflat uyqusida yotmaslikka, ya'ni atrofdagi voqealarga befarq bo'lmaslikka chaqiryapti. "Sa'y qil, bedor bo'l"-harakat qil, ko'zingni och, doimo sergak va izlanishda bo'l deganidir.

"Uz ko'ngil dunyodin emdi, tolibi diydor bo'l..." qatorida esa o'tkinchi dunyo xoy-havaslariga, boylik va o'tkinchi matohlarga ko'ngil bog'lashni bas qilish so'ralgan. Buning o'rniga Allohning roziligini topishga va yuksak ma'naviy maqsadlar sari intilishga ("tolibi diydor bo'l") undalmoqda.

"Hamjihatlik, binobarin, birlashishlik bizlarga farz,

Jonlantiring birlikni siz, sirlashishlik bizlarga farz." Ushbu misralarda she'rning ijtimoiy va eng muhim g'oyasi yashiringan. Og'ir sharoitda, ayniqsa musofirchilikda eng kerakli narsa bu birdamlikdir. Muallif hamjihat bo'lishni va birlashishni shunchaki maslahat emas, balki musulmonlar uchun bajarilishi shart bo'lgan "farz" (muqaddas burch) darajasiga ko'tarmoqda va Vataniga mehr-u muhabbatiga ziyoda bo'lishini takror-takror aytadi. Odamlar orasidagi yo'qolib borayotgan oqibat va birlikni qayta tiklash ("jonlantiring birlikni"), bir-biriga ishonib, dardlashib, yelkadosh bo'lib yashash qat'iy ta'kidlangan.

Asarni o'qir ekanmiz, "Bir yigitga qirq hunar oz" ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bu maqol mana shunday fidoyi insonlarni kashf qiladi.

Alixonto'ra Sog'uniy hazratlarining yurtimizning fidoiy qahramon sifatida bilsak, uning yana biz fidoyiligini isbotlaydigan va xalqparvar inson bo'lganliklarini guvohi bo'lamiz. Uning yaxshi amallari bilan bir qatorda Ibn Sino hazratining tabobat olamidan boxabar bo'lganligini va tabiblik bilan faoliyat yuritgani fikrimizni yanada kengayishiga sabab bo'lib ushbu voqelikni sizlar bilan baham ko'rishlikni jazm ettim;

Amaqu-amaqu, rostdan To'ra buvamlarnukiga ketopmizmu? O'shalarnukiga boramizmu?

-Bo'lmasa-chi, Toshkandi azimda u kishidan zo'ri bormi, tabiblarning dodaxo'jasi o'sha kishi-ku, -dedim shivirlab. (Judolik diyori 3, 5-bet).

Yozuvchi asarda ko'p o'rinlarda qahramonlarning iltijolarini, duo qilib istig'for aytishlarini ta'kidlaydi. Qur'oni Karimdagi sura va oyatlar insonni fikr yuritishga, Allohga iymon keltirishga, tavba qilishga undaydi: "Allohumma inniy a'zu bika min va'saka safara va kabatil munqalab va suil munzili val ahli val valadi". Ma'nosi budir: "Ey bor Xudoyo, safar xatarlaridan saqla, qaytib kelishda mol, jon yoki oila ichida ko'ngilsiz ishlar ustidan chiqishdan asra" [Ikkinchi kitob, 86] deb ta'kidlaydi. Shu o'rinda asarda keltirilgan yana bir oyati karimaga, yani Fajr surasining 27-28 oyatiga e'tibor qaratsak: "Yaa ayyatuxannafsul mutumainnah! Irrujii ilaa robbiki roziyatammaruziyax. Fad xulii fii ibaadii vad xulii jannatii. Ma'nosi bunday edi: "Ey qaror va orom topgan jon. Qaytgil Parvardigoring tarafiga rozi bo'lingan holda. Va dohil bo'l bandalarim oralariga va dohil bo'l jannatimga". [Ikkinchi kitob, 301].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Murod Mansurning “Judolik diyori” romani shunchaki tarixiy-badiiy asar emas, balki kitobxonni chuqur ma’naviy-ruhiy mushohadaga chorlovchi muhim tarbiyaviy manbadir. Yozuvchi asar g‘oyasini to‘laqonli va ta’sirchan ochib berish maqsadida Qur’oni Karimdagi sura va oyatlari, hadis-i shariflar hamda Imom G‘azzoliy kabi ulug‘ mutafakkirlarning hikmatlaridan juda o‘rinli mahorat bilan foydalangan.

Asarda keltirilgan epigraf, iltijolar va duolar (istig‘forlar) qahramonlarning haq yo‘lidagi sobitqadamligini ko‘rsatadi. Bu orqali insonning dunyodagi asl vazifasi o‘zligini anglash, o‘tkinchi hoy-havaslariga berilmaslik va Yaratganning roziligini topish ekanligi uqtiriladi. Yana shu o‘rinda asarda tarixiy shaxslar Alixonto‘ra Sog‘uniy va Oltinxon to‘ra kabi ma’rifatparvar zotlar timsoli orqali chinakam vatanparvarlik, xalqqa daxldorlik va fidoiyluk tuyg‘ulari yorqin ochib berilgan. Ularning millat dardi bilan yashashi va ilm-ma’rifati (masalan, tabobat ilmidan xabardorligi) bugungi avlod uchun beqiyos ibrat maktabidir.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu tahlil shuni tasdiqlaylaydiki, “Judolik diyori” romani kitobxonni halollik, mehr-shafqat, axloq va yuksak ma’naviyatga undovchi noyob asardir. Undagi ibratli hikmatlar o‘zining tarbiyaviy ahamiyatini va dolzarbligini har qanday davrda ham saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва т-и. – Т., 2001. 21 б.
2. Мурод Мансур. Жудолик диёри. Биринчи китоб. – Т.: Шарқ, 2007- йил, 384 б.
3. Мурод Мансур. Жудолик диёри. Иккинчи китоб. – Т.: Шарқ, 2007-- йил, 317 б.
4. Мурод Мансур. Жудолик диёри. Учинчи китоб. – Т.: Шарқ, 2006- йил, 384 б.
5. Мурод Мансур. Жудолик диёри. Тўртинчи китоб. – Т.: Шарқ, 2014- йил, 495 б.
6. Тоҳир Малик. Одамийлик мулки туркумидан / Маърифий рисола. – Т., 2017. – 336 б.

